

ZAMONAVIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TYUTORLIK TIZIMINING SHAKLLANISHI VA TALABLARI

Aliyeva Bibixonim

Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2- kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali tyutor tushunchasi va uning ahamiyati haqida ma'lumotga ega bo'lasiz. Tyutor so'ziga ilmiy berilgan ta'riflar hamda bobolarimizning fikrlari ushbu maqolada o'rin olgan. Tyutor bu yordamchi .Talabaning eng yaqin ko'makchisi.*

Kalit so'zlar: *Tyutor, tyutorning kreativ qobiliyati, uning majburiyatlari, pedagogik-psixologik xolati*

Annotation: *Through this article, you will get information about the concept of a tutor and its importance. Scientific definitions of the word "tutor" and the opinions of our grandfathers are included in this article. A tutor is an assistant. The student's closest assistant.*

Key words: *Tutor, tutor's creative ability, his obligations, pedagogical-psychological condition.*

Абстрактный: *В этой статье вы получите информацию о концепции репетитора и ее важности. В данную статью включены научные определения слова «воспитатель» и мнения наших дедов. Репетитор – помощник, ближайший помощник ученика.*

Ключевое слово: *Воспитатель, творческие способности воспитателя, его обязанности, педагогико-психологическое состояние.*

Haqiqatan ham, har bir murg'ak bolani o'z farzandidek ardoqlab, yosh avlod tarbiyasi uchun ko'z nuri , qalb qo'ri, butun borlig'ini baxsh etadigan o'qituvchi va murabbiylar tom ma'noda fidoiy kasb egalaridirlar va bu borada Tyutorlar ham barcha tarbiyaviy ishlarda mas'uldirlar.

Shavkat Mirziyoyev

KIRISH

Ota-ona o'z bolalari uchun doimo qayg'urgani singari bugun ta'lim muassasalari ham talabalarning ilm olishi, kelgusi faoliyatini to'g'ri belgilashiga mas'ullikni his etadi. Har bir oliy ta'lim muassasasining talabasi uning farzandi kabilidir. Talabaga ta'lim berish, darsdan bo'sh vaqtda nimalar bilan band bo'lishi, qanday muhitda yashashi, uning qiziqishlari —bularning barchasi oliy o'quv yurti uchun muhim.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 -yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni hamda shu asosida qabul qilingan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 30-sentyabrdagi buyrug'i va Nizomi oliy ta'lim muassasalarida

tyutorlik tizimini joriy qilishga asos bo'lgan edi. Yaqin yillargacha OTMlarda murabbiylik tizimi asosida ish olib borilardi. Bunda o'qituvchining majburlov yuklamasidan tashqari, o'qituvchi sifatida o'zining katta mas'uliyati ham turgan. Bunday vaziyatda murabbiy o'quvchilar bilan shug'ullana olmagan. Bugun ham oliy o'quv yurtlarida talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashuvchi murabbiylar ish olib bormoqda. Biroq endilikda ular guruh murabbiylari emas, balki tyutorlar deb nomlandi. Ularning vazifalari ham avvalgisidan farq qiladi, ya'ni tyutor talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, ta'lim muassasasi, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda ishtirok etishiga, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga yordamlashuvchi, yigit-qizlarni kasbga yo'naltirish, turli ilmiy to'garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarni o'rganib, ularga yechim topish bilan shug'ullanadilar.

Bugun bir qancha OTMlar qatori Navoiy Davlat Pedagogika institutida ham tyutorlar ish olib bormoqda. Ayni kunda ularning soni 70 nafarga yaqinlashdi. Hozirgi globallashuv sharoitida barcha sohalarning tayanchi, fundamenti — ta'limga borib taqaladi. Shu jihatdan, zamon talablariga mos, har tomonlama mulohazali, manfaatlari bunyodkorlik g'oyasiga qaratilgan yosh kadrlarni tarbiyalash bugungi kun ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Tyutorlik tizimi ham ana shu maqsadlarga yo'naltirilgan. Tyutor talaba shaxsini individual yondashuv asosida shaxsiy va kasbiy jihatdan hayotga tayyorlovchi vasiydir. Har bir yangilikning kelib chiqish tarixi bo'lgani kabi tyutorlikning ham kelib chiqish tarixi bor. Qadimgi manbalarga ko'ra, dastlabki tyutorlar XII asrda Angliyaning Oksford va Kembrij universitetlarida paydo bo'lgan. Atama ingliz tilidan olingan va "uy o'qituvchisi, o'qituvchi, murabbiy, vasiy" degan ma'nolarni anglatadi. "Tyutorlik" so'zi insonning shaxsiy ta'limini qo'llab-quvvatlashni anglatadi. Bu juda nozik, "xususiy" ish faoliyatidir. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, tyutor universitet ta'limi tizimida qo'l ostidagi talabalarning tarbiyasiga mas'ul bo'lgan muhim shaxsga aylanadi.

Hozirda tyutor faoliyati ko'lami yanada kengayib, endilikda unga ta'lim berish vazifalari ham yuklatilgan. U talabaga qaysi amaliy mashg'ulot va ma'ruzalarga kirishni aniqlab beradi, talabalar darslarni qoldirmay yaxshi o'qishlari va imtihonlarga tayyor bo'lishlarini nazorat qilib borilyapti. Tyutorlik faoliyati hozirda oliy ta'lim muassasasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Aniqrog'i, tyutor ishining asosiy shakli talaba bilan individual va jamoada ishlash yoki unga ta'lim-tarbiya maslahatchisi bo'lishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Haydaov F.I Xalilova N.I Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi. Toshkent 2007 .
2. Tyutor lavozimi nizomi.
3. Axborot manbaalari: 3. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz) 4. www. pedagog. Uz 5. www. Ziyonet. Uz 6. www. edu. Uz.